

ABDURAHMON JOMIY VA BOBUR

Burobiya Radjabova

*O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori
instituti yetakchi ilmiy xodimi,
filologiya fanlari nomzodi*

Annotatsiya: *Maqolada Bobur “Boburnoma”da Abdurahmon Jomiy haqida o‘nga yaqin ma’lumot yozgani tadqiq etilgan. Ularda daho shoirning hayoti, asarlari, Hirot madaniy muhitidagi qizg‘in faoliyati, tavorud adabiy hodisasi tahlil qilingan. Memuarda fors tilidagi she’rlaridan namuna keltirgani ta’kidlangan. Ayrim zamondoshlari bilan bo‘lib o‘tgan ma’rifiy, adabiy suhbatlari va Boburning 1506-yilda Hirot safari davomida Jomiy qurdirgan madrasa xususidagi muhim xabari ham yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *Memuar, tarixiy shaxs, uslub, tavorud, she’r va madaniy muhit.*

“Boburnoma” asarining yana bir muhim xususiyati shundaki, Bobur muhtasham memuarida Temuriylar Uyg‘onish davri hukmdorlari, shoirlari, olimlari, harbiy sarkarda, beklarning tarixiy siymolari, xususan, temuriy hamda boburiy shahzoda, malikalarning jonli obrazlari, hayoti, ijodi, bunyodkorlik faoliyatlari bilan bog‘liq ishonchli xabarlar, qimmatli tarixiy ma’lumotlarni o‘zining betakror uslubida bitib qoldirgan. Ushbu o‘rinda boburshunos olimlar S.Hasanov, N.Otajonov, S.Jamolovning “Boburnoma”ning 2002-yilgi nashriga yozgan “Buyuk qomusiy asar” nomli so‘zboshisida aytgan fikrlarini keltirishni o‘rinli deb bildik: “Boburnoma”da juda ko‘p tarixiy shaxslar (temuriy hukmdorlar, harbiy amaldorlar, ilm-fan va san’at namoyandalari va boshqalar)ning shakl-shamoyillari va ruhiyatlari mohirona chizilgan, ularning xatti-harakatlari, faoliyatlari bayoni orqali shaxsiy xususiyatlari ochib berilgan. Tarixiy shaxslarning qiyofalari va fazilatlarini yoritganda muallif ularga nisbatan haqqoniy munosabatda bo‘lishga, ularning yashash tarzi va sharoitidan kelib chiqib, fe’l-atvorlarining eng muhim jihatlari mumkin qadar aniq va ixcham iboralarda, lo‘nda ifodalashga harakat qiladi”¹. Bobur “Boburnoma”da tilga olgan Temuriylar Renessansi davrining ulug‘ siymolaridan biri, bu – XV asrda o‘z ijodi bilan fors-tojik adabiyotining taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shgan, Temuriylar davlat boshqaruvida bo‘lgan Xuroson va uning poytaxti Hirot, Movarounnahr poytaxti Samarqand adabiy-madaniy hayotining rivojida katta mavqega ega bo‘lgan daho so‘z san’atkori, “murabbiy va

¹ Hasanov S., Otajonov N., Jamolov S. Buyuk qomusiy asar // Bobur. Boburnoma. – Toshkent: Sharq, 2002. – 25-bet.

muqavviy”si Nuriddin Abdurahmon Jomiy (1414–1492 yy.)dir. U temuriy hukmdorlardan Shohrux Mirzo, Abulqosim Bobur, Sulton Abusayid Mirzo, Sulton Husayn Boyqaro hukmronligi davrida yashab, ijod qilgan. Ammo uning Samarqandda yashab, madrasada ta’lim olgan davri, baxtli damlari esa Movarounnahrning donishmand hukmdori Mirzo Ulug‘bek hukmronligi davriga to‘g‘ri kelgan.

Shu o‘rinda shuni alohida ta’kidlash zarurki, atoqli adib Maqsud Shayxzoda “Mirzo Ulug‘bek” tragediyasida Abdurahmon Jomiyning tarixiy obrazini yigirma olti yoshdagi iqtidorli olim va shoir sifatida mahorat bilan yaratgan hamda asarda uni lutf bilan “hirotlik talaba” deb ham tilga olgan. Asar syujeti va fabulasiga ko‘ra, Ulug‘bek madrasasida to‘qson mudarris va yuz nafar yosh olim ishtirokida bo‘lib o‘tgan yosh olimlarning xalqaro anjumanida u iroqlik, eronlik, koshg‘arlik iqtidorli talabalar qatorida donishmand shoh Ulug‘bek Mirzo bilan yuzma-yuz muloqot qiladi. Mirzo Ulug‘bek ham o‘zaro muloqot davomida Abdurahman Jomiy haqida rahmatlik ustozi Qozizoda Rumiyan eshitganini samimiylik, shohona iltifot bilan aytib o‘tadi. Donishmand hukumdordan tuhfa sifatida talaba Jomiy 1018 ta yulduz bo‘yicha tuzgan jadvalni olgani to‘g‘risida ham qiziqarli tasvirlar bayon qilingan.

Biz “Boburnoma”da keltirgan Abdurahmon Jomiy haqidagi qimmatli ma’lumotlarni o‘rganar ekanmiz, mazkur ma’lumotlarda Abdurahmon Jomiyning no- mi, unvoni, nasab va hasabi, adabiy va ilmiy merosi, Temuriylar Renessansi hamda Hirot va Samarqand madaniy muhitida tutgan yuksak o‘rni va ma’rifiy-madaniy, adabiy ta’siri, u bitgan ellikta asaridan faqat “Munshoat”, “Nafohat ul-uns”, “Subha” asarlarining nomi, Sulton Husayn Boyqaro va uning jiyani Kichik Mirzo hamda Alisher Navoiy, amir Shayxim Suhayliy kabi do‘stlari va Mulla Mas’ud Shirvoniy, Mulla Abdulg‘afur Loriy singari sudr shogirdlari bilan bog‘liq munosabat, muloqotlari, bebaho tavorud adabiy hodisasi, ular davrasida kechgan ibratli suhbatlari hamda Hirotida monumental bino sifatida uning qurdirgan madrasasi va, umuman, Nuran Maxdumning Temuriylar Uyg‘onish davri rahbarlari yirik mulkdorlari ma’naviyatiga xos “murabbiy va muqavviy”, “tarbiya va taqviyati”lilik fazilatlarini kabi muhim masalalar qamrab olinganligini bildik. Ammo asarda Abdurahmon Jomiy alohida fasl yoki fiqrada tilga olinmaganini ko‘rdik.

“Boburnoma”da Abdurahmon Jomiyning Sulton Husayn Boyqaro va Alisher Navoiy bilan o‘zaro muloqotlari to‘g‘ridan-to‘g‘ri, ya’ni

dialoglar tarzida aks etgan tasvir, lavha yoki gap yo‘q. Memuarda u, asosan, Abdurahmon Jomiy nomi bilan va ba‘zi o‘rinlarda esa Mulla, Mavlono nisbasida tilga olingani kuzatiladi. Asardagi yana muhim ma‘lumot shuki, Bobur ma‘lum muddat poytaxt Hirotda bo‘lgan vaqtda uning fayzli mozorini ziyorat qilgan, madrasasida ham bo‘lgan, mazkur ziyoratlari xususida memuarining ikki o‘rnida qimmatli xabar bitgan. Masalan: “Men Xuroson borg‘onda ...Mullaning mozorini tavof qilganda Mulla Abdulg‘afurning iyodat²ig‘a borib edim, Mullaning madrasasida edi” (137) kabi qimmatli xabar va lavhalar yozilgan.

Kuzatishlarimizga ko‘ra, muhtasham memuarida mahoratli muallifning Abdurahmon Jomiy haqidagi ma‘lumot va e‘tiroflari, faqat Sulton Husayn Boyqaro bilan bog‘liq mazmunan boy va shaklan yirik tarzda bitilgan tarixiy lavhada keltirilgan hamda bu holat “Boburnoma”ning quyidagi o‘rinlarida uchraydi. Birinchidan, Abdurahmon Jomiy nomi Sulton Husayn Boyqaroning “Valodat va nasabi” (128) faslida yozilgan Kichik Mirzo haqidagi ma‘lumotda shahzodaning ruboiysi Abdurahmon Jomiyning bir go‘zal ruboiysi bilan tavorud bo‘lganligi to‘g‘risidagi muhim xabarda, ikkinchidan, Sulton Husayn Boyqaroning o‘ttizdan ortiq umarolari to‘g‘risida tarixiy xarakterdagi qimmatli ma‘lumotlarni yozib qoldirgan ma‘lumotlar indeksida, xususan, Kichik Mirzo, Alisher Navoiy va Amir Shayxim Suhayliy, Mulla Ma’sud Shirvoniy, Mulla Abdulg‘afur Loriy bilan bog‘liq ma‘lumotlarda bayon qilgan, uchinchidan, Sulton Husayn Boyqaroning “ajab zamonida” yashab ijod qilgan o‘ndan ortiq taniqli shoir va adiblar qatorida “Temurbekning yurtida”, ya’ni Xurosonning yetakchi shoiri, ijtimoiy shaxsi sifatida Abdurahmon Jomiyning yuksak e‘tirof bilan tilga olgan, to‘rtinchidan, asarning “Volidiya” tarjimasida bitilgan xabarda va nihoyat, beshinchidan esa Bobur o‘g‘li Komron Mirzoga qarata bitgan nasihatida “Bu nasihatni angla”, deya Abdurahmon Jomiyning bir ma‘vizabop she‘rini tamsil sifatida keltirgan lavhada uchramiz.

O‘rganishimiz jarayonida shu narsa ma‘lum bo‘ldiki, yuqorida tilga olgan bir-biridan qimmatli, qiziqarli ma‘lumotlarning barchasida Bobur Abdurahmon Jomiy ijodiga katta qiziqish va hayrat bilan qaragan va unga yuksak baho bergan, hatto, Amir Shayxim Suhayliy haqidagi sharhda zavqli lahzalarga yo‘g‘rilgan voqea haqidagi o‘zining kuzatishlarga boy hayratini ifodalashga harakat qilgan. Muallif kitobda bitgan “Sulton Husayn Mirzoning tavobi’ va lavohiqi bular erdikim, mazkur bo‘ldi” nomli

² Iyodat – kasal ko‘rish, kasalning holini so‘rashga borish.

izohida Temuriylar Uyg‘onish davrida fozil shahar Hirotida ilmiy, madaniy qizg‘in hayot, madaniy yuksalish xususida “Sulton Husayn Mirzoning zamoni ajab zamona edi, ahli fazl va benazir eldin Xuroson, bataxis Hiri shahri mamlu edi. Har kishiningkim bir ishga mashg‘ullug‘i bor edi, himmati va g‘arazi ul edikim, ul ishni kamolg‘a tegurgay” deb Temuriylar Renessansiga doir nihoyatda muhim sharh bitgan. Bobur yozgan ushbu mamnuniyatga to‘la sharh qaysidir ma’noda bizga Alisher Navoiyning “Kamol et kasbkim, olam uyidin” deb bitgan oltin bitiklarini yodga soladi. Chunki Alisher Navoiyning “Kamol et kasbkim, olam uyidin” degan misrasi bilan “Boburning “Har kishiningkim bir ishga mashg‘ullug‘i bor edi, himmati va g‘arazi ul edikim, ul ishni kamolg‘a tegurgay” deb yozgan xabari go‘yo bir-birini to‘ldirgandek. Mazkur qit‘aning yaxshi talqini navoiyshunos I.Haqqulov tomonidan amalga oshirilgan. Olim Alisher Navoiyning 115 ta o‘zbek va fors tilida bitgan qit‘alarini talqin qilib “Kamol et kasbkim”³ nomli o‘qishli kitob yozgan. Va bu sharhda “Bu jumladin biri Mavlono Abdurahmon Jomiy edikim, zohir va botin ulumida ul zamonda ul miqdor kishi yo‘q edi. She’ri xud ma’lumdur. Mulloning janobi andin oliyroqdurkim, ta’rifqa ehtiyoji bo‘lg‘ay. G‘oyatash xotirg‘a kechtikim, bu muhaqqar ajzoda tayammun va tabarruk jihatidin alarning otlari mazkur va shammaye sifatlaridin mastur bo‘lg‘ay” (137), deb alohida samimiyat va e’tirof bilan xabar yozgan. Ushbu lavhada “Sulton Husayn Mirzoning zamoni ajab zamona edi, ahli fazl va benazir eldin Xuroson, bataxis Hiri shahri mamlu edi. Har kishiningkim bir ishga mashg‘ullug‘i bor edi, himmati va g‘arazi ul edikim, ul ishni kamolg‘a tegurgay”, deb yozgan ma’lumot bizga Sulton Husayn Boyqaroning “Risola”sida yozishicha. Hirot madaniy muhitida mingdan ortiq ijodkorlar⁴ borligini, Sultonning o‘zi va Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy rahnamoligida “murabbiy va muqavviy” hamda “tarbiya va taqviyati”ligida hamjihatlik bilan qalam tebratganini eslatadiki, go‘yo Sulton Husayn Boyqaro va Bobur yozgan qimmatli ma’lumotlarni hech ikkilanmasdan o‘zaro mushtarak tarixiy, adabiy hodisa sifatida baholash mumkin. Yana Temuriylar Renessansi davridagi yuksalish, taraqqiyot masalasini ham yoritib bergan.

Umuman, muallif memuarining “Shuarodin” nomli qismida Sulton Husayn Boyqaro hukmronligi davrida barakali ijod qilgan o‘ndan ortiq taniqli shoirlarni nomma-nom tilga olar ekan, u dastlab “jam’ning

³ Haqqulov I. Kamol et kasbkim. – Toshkent: Cho‘lpon, 1990. – 240 b.

⁴ Husayn Boyqaro. Risola. Devon. – Toshkent: Sharq, 1995. – 23-bet.

saromad va sardaftari”, deya sharaflab, ulug‘lab Abdurahmon Jomiyni zikr qiladi hamda Renessans shahar Hirot ilmiy muhitining mashhur besh nafar olimlar guruhi, ya’ni xamsai-mutahayyira⁵arning rahbari ekaniga ham yashirin talmehda ishora qilgan. Bu hayratlantirarli beshlik haqida Alisher Navoiyning iste’dodli shogirdi Zayniddin Mahmud Vosifiy “Badoe’ ul-vaqoe’” asarida alohida hikoyat bitgan. Muhimi, bu xamsai-mutahayyiralarning faoliyati bizga Temuriylar Uyg‘onish davrida ilm, fanning yuksak darajada rivoj topganligi xususida muhim xabar beradi. Va “...bu jam’ning saromad va sardaftari Mavlono Abdurahmon Jomiy edi. Yana Shayxim Suhayliy va Husayn Ali Tufayliy Jaloyir erdikim, otlari va sifatleri Sulton Husayn Mirzoning beklari va ichkilari chargasida mazkur va mastur bo‘ldi” (138), deb izoh bergan.

Abdurahmon Jomiy to‘g‘risidagi yana bir qimmatli ma’lumotga Sulton Husayn Boyqaroning “Umarosi” nomli faslning Alisher Navoiy haqidagi katta hajmdagi ma’lumotlar indeksida duch kelamiz. Bobur ushbu o‘rinda Alisher Navoiyning 107 ta xatdan iborat “Munshaot” asariga ishora qilgan: “Ul jumladin insholarini Mavlono Abdurahmon Jomiyg‘a taqlid (ushbu o‘rinda taqlid so‘zi bugungi kunda taqlidchi kabi ma’noda emas, balki an’ana, adabiy ta’sir, izdo- shi ma’nolarida kelgan – B.R.) qilib jam’ qilibtur, hosili kalom, har kimga har ish uchun har xatkim bitibtur, yig‘ishturubtur” (132). To‘g‘ri, Bobur matnda an’ana, adabiy ta’sir yoki izdoshi so‘zini emas, balki taqlid jumlasini qo‘llagan. Shuni alohida aytib o‘tish kerakki, taqlid so‘zining biz hozir tushunadigan ma’nosi keyin paydo bo‘lgan. Ilgari taqlid so‘zi ancha keng ma’noda qo‘llanib, bir qancha ma’no va tushunchalarni, shu jumladan esa an’ana, adabiy ta’sir, izdoshini ham bildirib kelgan.

Kitobning amir Shayximbek zikrida esa Abdurahmon Jomiy bilan bog‘liq maroqli, sahnabop bir hayotiy voqea bilan bog‘liq lavha bor. Lavhada ulug‘larning o‘zaro suhbatlari, she’rxonliklari, adabiy-ilmiy bahs va baholari, e’tirof va e’zoz masalalari ham aks etgan hamda Abdurahmon Jomiyning fozil insonlarga xos halimlik fazilati ochib berilgan. Voqealar bayonida Abdurahmon Jomiy Amir Shayxim Suhayliyga halimlik va hozirjavoblik bilan aytgan hazilga yo‘g‘rilgan tanqidiy fikridan xabardor bo‘lamiz: “Yana Shayximbek edi, “Suhayliy” taxallus qilur uchun Shayxim Suhayliy derlar edi. Bir tavr she’r aytur edi. Qo‘rqqudek alfoz va maoniy

⁵ Zayniddin Mahmud Vosifiy. Badoe’ ul-vaqoe’ (Fors tilidan N.Norqulov tarjimasini). – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1979. – 184–190-betlar.

darj qilur edi. Aning abyotidan bir budur:

*Shabi g'am girdbodi oham az jo burd gardunro,
Furo 'burd ajdahoi seli ashkam rub 'i maskunro.*

Tarjimasi: G'amli kechalarda ohimning quyuni osmonni o'rnidan qo'zg'atdi, ko'z yoshim selining ajdahosi esa yer yuzini yutib yubordi.

Mashhurdurkim, bir qatla bu baytni Mavlono Abdurahmon Jomiy xizmatida o'qubtur. Mavlono aytibturkim: “Mirzo, she'r aytasiz yo odam qo'rqutasiz?..” (134). Muallif memuarda Amir Shayxim Suhayliy “... bir qatla bu baytni Mavlono Abdurahmon Jomiy xizmatida o'qubtur”, deb yozganidan ma'lum bo'ladiki, demak, bu voqea – adabiy suhbat Abdurahmon Jomiyning uyida, uning huzurida bo'lib o'tgan.

Bobur memuarda Mulla Ma'sud Shirvoniy va Mulla Abdulg'afur Loriy haqidgi ma'lumotni Sulton Husayn Boyqaro haqidagi lavhaning “Sudur” nomli faslida yozgan. Voqealar bayonida u Abdurahmon Jomiyning “Nafohat ul-uns” asariga sharh bitilgani hamda o'zining Abdurahmon Jomiyning fayzli mozorini tavof qilgani va madrasasida bo'lganini bayon qilgan (137). Demak, Bobur Hirotda kechgan yigirma kunlik safari davomida Abdurahmon Jomiy hayoti va ijodi bilan bog'liq tafsilotlarni ham o'rgangan. O'rganish jarayonida, balki Bobur uning yo'qlovchisi bo'lib, orqasida qolgan yagona o'g'li Ziyovuddin Yusuf bilan uchrashgan va muloqot ham qilgan bo'lsa kerak, degan ehtimolimiz bor.

Shuni yana alohida ta'kidlash zarurki, Abdulg'ofur Loriyning ustozlari Jomiyning “Nafohat ul-uns” tazkirasiga bitgan sharhi xususida Hasanxo'ja Nisoriy ham “Muzakkiri ahbob” asarida gapirgan. Akademik Sh.Sirojiddinov esa “Alisher Navoiy: Manbalarning qiyosiy-tekstologik tahlili” kitobida Abdulg'ofur Loriy haqida batafsil to'xtalgan. Demoqchi bo'lganimiz, Loriy Jomiy vafotidan keyin ham “Nafohat ul-uns” bilan shug'ullangan shogirdi hisoblanadi.

Bobur memuarda Abdurahmon Jomiyning ellikdan ortiq asarlaridan faqat “Munshoat”ni Alisher Navoiy ijodi munosabati bilan va “Nafohat ul-uns”ni esa Sultonning suduri, shayx Abdulg'afur Loriy bilan bog'liq hamda “Subha”ni esa o'zining “Muxtasar” asari bilan bog'liq bo'lgan xabarlarida yozganini kuzatdik.

Bobur o'zining “Nasihatnomayi Bobur ba farzandi xud” (“Boburning o'z farzandiga nasihatnomasi”) nomli nasihatnomasida insonning yaxshi nomini, obro'sini tushiruvchi, islom ma'rifatiga zid qusurlaridan biri – nokaslik ekanini tushuntirishda Abdurahmon Jomiydan o'zi ta'sirlangan

fors tilida bitilgan ibratli mazmunga yo‘g‘rilgan qit‘asini o‘g‘liga bitgan nasihatiga sudmand sifatida “Hazrati Mavlono Jomiydin bu qit‘a mashhurdur” deb tamsil qilgan:

*Har ki nokas buvad dar aslu sirisht,
Munqalib notavon kardan, ey jigar.
Sagmagasro agar kuni maqlub
Qalbi o‘g‘ayri sagmagas nashavad (332).*

Tarjimasi:

*Har kimki asli nokas bo‘lib yaralmish,
Uni tuzatib bo‘lmaydi, jigarim.
“Sagmagas” (itpashsha)ni harchand o‘zgartirganda ham,
Uning qalbi “Sagmagas” bo‘lib qolaveradi.*

Endi yuqorida tilga olib o‘tgan tavorud mushtarak adabiy hodisasini tahlil va talqin qilsak. Umuman, Temuriylar Uyg‘onish davri ilmiy, adabiy, madaniy muhitdagi sog‘lom holat ustun bo‘lgani uchun ham ayrim ilmiy, tarixiy, adabiy hodisalar boshqa davr adabiy, madaniy muhitiga nisbatan ancha yuksalgan va boy bo‘lgan. Fikrimiz isboti uchun ayrim mushtarak adabiy hodisalar talqiniga to‘xtalsak foydadan xoli bo‘lmaydi. Alisher Navoiy “Majolis un-nafois” tazkirasida va Zahiriddin Muhammad Bobur “Boburnoma” asarida yozib qoldirgan Temuriylar Uyg‘onish davri adabiyotshunosligiga oid qimmatli ma‘lumotlarning ayrimlari bir-biriga juda yaqin yoki har ikki ijodkorga taalluqli bo‘lib, bunday umumiy ma‘lumotlarni bir mushtarak (arabcha: umumiy, ko‘pchilikka taalluqli, o‘rtadagi kabi lug‘aviy ma‘nolarni bildiradi) adabiy hodisa sifatida baholashimiz mumkin.

Ma‘lumki, mushtarak adabiy hodisalar jahon adabiyotidagi turli adabiyotlarga xos, bir hududda yashovchi adiblar ijodiga xos, ma‘lum bir davrda yashagan ijodkorlarga xos yoki ayrim olingan shoirlar ijodiga xos bo‘lishi mumkin. Endi tasnifda ko‘rsatilgan mushtarak adabiy hodisalarning ayrim olingan ijodkorlar ijodiga xos ko‘rinishini Temuriylar Uyg‘onish davri vakillari Abulvafoiy Xorazmiy, Sharafiddin Ali Yazdiy, Abdurahmon Jomiy, Kichik Mirzo, Alisher Navoiy, Badriddin Hiloliy hamda shoh va shoir Bobur ijodida kuzatishga harakat qilsak.

Kitobda biz Alisher Navoiy va Bobur ijodida bitilgan nihoyatda kam uchraydigan tavorud kabi noyob mushtarak adabiy hodisani hamda Abulvafoiy Xorazmiy va Bobur ijodida mahorat bilan nazm va nasrda qo‘llangan, Sharqda mashhur bo‘lgan bir maqol, folklorizm asosida yaratilgan irsoli masal singari mushtarak adabiy hodisani aniqlab, tanlab

oldik. Xususan, Alisher Navoiy va Bobur o‘zlarining temuriy shahzoda Kichik Mirzo (1451–1484 yy.) haqida yozgan tarixiy xarakterdagi ma’lumotlarida tavorudga tushgan juda go‘zal ruboiysini ta’kidlab ko‘rsatgan va birdek tavorud atamasini qo‘llagan hamda ular tavorud sabab Temuriylar Uyg‘onish davri mutafakkiri Abdurahmon Jomiy ijodiga ochiq va yashirin talmeh (Nuran Maxdum, Mullo nisbasi)da, Kichik Mirzo ijodiga esa ochiq talmeh vositasida yuksak baho bergan.

O‘rganishimizga ko‘ra, O‘zbekiston Qahramoni S.G‘aniyeva va atoqli navoiyshunoslar M.Hakimov, Yo.Is‘hoqovning tavorudga bergan ta’riflari bir- birini to‘ldiradi, chunonchi: “Tavorud (arabcha: *ket- ma-ket kelmoq, bir-biri bilan tasodifan bir yerga tushib qolmoq*) – adabiyotda she’rning bir-biridan xabarsiz holda ikki shoir tomonidan yaratilish hodisasi, tasodifan bir-biriga aynan o‘xshab qolishi”⁶.

Sulton Husayn Boyqaroning jiyani shahzoda Kichik Mirzoning fors tilida yozgan bir ruboiysi Ollohning “Kun” amri bilan ulug‘ shoir Abdurahmon Jomiy ruboiysi bilan bir-biriga aynan o‘xshab – tavorud voqea sodir bo‘ladi. Ushbu go‘zal ilhomiy jarayon bo‘lmish mushtarak adabiy hodisa Hirot adabiy muhitida shuhrat qozonadi, qalam ahli orasida Abdurahmon Jomiy va Kichik Mirzo ijodiga havasu rag‘bat, qiziqish ortadi. Bu haqda Hirot adabiy muhitining rahbari va homiysi, “murabbiy va muqavviy”si Alisher Navoiy “Majolis un-nafois”ning Sohibqiron Amir Temur va yigirmadan ziyod Temuriylar yodga olingan yettinchi majlisning Kichik Mirzo zikrida va Bobur “Boburnoma”ning Sulton Husayn Boyqaro haqidagi “Valodat va nasabi” nomli faslda yodga olgan va nazariy fikrlarining isboti uchun shahzodaning mashhur ruboiysini keltirgan. Biz o‘quvchilarning Kichik Mirzo to‘g‘risida batafsil ma’lumotga ega bo‘lishlarini istab, kitobda Alisher Navoiy va Boburning shahzoda haqida yozgan hasbi holini, ta’rifu tavsiflarini to‘liqroq holda berishga harakat qildik. Ammo har ikki daho ijodkorlar Kichik Mirzoga o‘z asarlari xususiyatidan kelib chiqib ma’lumot va baho berganligini hisobga olishimiz kerak.

Alisher Navoiy tazkirasida Kichik Mirzoning fazilati va iqtidori bilan bog‘liq o‘ndan ortiq fazilat va sifatlarini sanab ko‘rsatsa, Bobur esa memuarida uning “tab’i nazmi”dan tashqari qisman avtobiografiyasini, jumladan, Sulton Husayn Boyqaroning Oqobegim ismli opasining o‘g‘li, otasi Sulton Ahmad Mirzo, uning asli ismi Muhammad

⁶ Alisher Navoiy. Majolis un-nafois. MAT. 13-jild. – Toshkent: Fan, 1997. – 278-bet; Hakimov M. Sharq manbashunoslik lug‘ati. – Toshkent: DAVR PREES NMU, 2013. – 295-bet; Is‘hoqov Yo. So‘z san’ati so‘zligi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2014. – 180–181-betlar.

Sulton Mirzo ekanini, u otasi bilan podshoh tog‘asi qo‘lida ma‘lum vaqt harbiy xizmatda bo‘lganligini ham aytgan. Alisher Navoiy yozadi: “Kichik Mirzo – xo‘b tab‘liq, tez idroklik, sho‘x zehnik, qaviy hofizaliq yigit erdi. Oz fursatda yaxshi tolibi ilm bo‘ldi va ko‘proq ulum va funundin o‘z mutolaasi bilan vuquf hosil qildi. She‘r va muammoni xo‘b anglar erdi, balki ko‘ngli tilasa ayta ham, olur erdi. Bovujudi bu fazoyil Darvishlarga moyil bo‘lub, Makka ziyorati sharafiga musharraf bo‘ldi. Ammo bag‘oyat mustag‘ni kishi erdi. Bo‘la olurkim, faqir istig‘nosi erkan bo‘lg‘ay. Bu ruboiy aningdurkim:

*Umri basalloh mesutudam xudro,
Dar shevayi zuhd menamudam xudro,
Chun ishq omad kadam zuhdu, chi saloh,
Al-minnatu lilloh, ozmudam xudro.*

Ba‘zi derlarkim, bu ruboiy hazrat Maxdumiy Nuran bila tavorud voqe bo‘lubtur. Andoq dag‘i bo‘lsa, ulug‘ davlat turur”⁷. Yoki Bobur “Boburnoma”da ham Kichik Mirzoning tavorudga tushgan ruboiysini aynan keltiradi va shunday yozadi: “...Bir o‘g‘li bor edi, Kichik Mirzo otlig‘. Burunlar tag‘oyisiga mulozamat qilur edi, so‘ngra sipohiyliqni tark qilib, mutolaag‘a mashg‘ul bo‘ldi. Derlarkim, donishmand bo‘lub ekandur. Tab‘i nazmi ham bor ekandur. Bu ruboiy aningdur:

*Umri basalloh mesutudam xudro,
Dar shevayi zuhd menamudam xudro,
Chun ishq omad kadam zuhdu, chi saloh,
Al-minnatu lilloh, ozmudam xudro.*

Mulloning ruboiysi bila tavorud bo‘lubtur. Oxirlar haj tavofi ham qildi” (128).

Tarjimasi: Umr bo‘yi o‘zimni yaxshilik bila maqtadim, o‘zimni zohid va taqvodor qilib ko‘rsatdim. Ishq kelgach, zohidlik qayda qoldi-yu, yaxshilik nima bo‘ldi? Ollohga shukrkim, o‘zimni sinadim.

Qizig‘i shundaki, Alisher Navoiy tavorudga sabab bo‘lgan Kichik Mirzo ruboiysi to‘g‘risida yozar ekan, birinchidan, tavorud Hirot adabiy muhitidagi boshqa ijodkorlar tomonidan tan olinib aytilganini “Ba‘zi derlarkim” deya ta‘kidlab ko‘rsatsa, ikkinchidan esa o‘zi ham zamondosh shoirlarning tavorud haqidagi mazkur bahosini munaqqid sifatida o‘rganib, qadrlab o‘z xulosa va roziligini, olqishini “Andoq dag‘i bo‘lsa, ulug‘ davlat turur” deya chiroyli lutf bilan bayon qilgan. Tarixiy manbalarda, Alisher

⁷ Alisher N. Majolis un-nafois. MAT. 13-jild. – Toshkent: Fan, 1997. – 169-bet.

Navoiyning mehri, hurmati Kichik Mirzoga va o‘z navbatida Kichik Mirzoning hurmati, ixlosi, e‘tibori ulug‘ amir Alisher Navoiyga ham o‘zgacha bo‘lganligi, hatto bu yaqinlikni ifodalovchi rasm, minatyura chizilganligi to‘g‘risida ham xabarlar aytilgan. Bu minatyura haqida Z.M.To‘g‘on ma‘lumot yozgan. Q.Ergashov shunday izoh bergan: “O‘sha davr minatyuralaridan birida Alisher Navoiyning Kichik Mirzo bilan suhbatlashib turgani tasvirlangan”⁸. Alisher Navoiy “Soqiynoma”⁹ asarida Kichik Mirzoning navqiron, o‘ttiz uch yoshda bevaqt vafot qilganidan qattiq kuyib, chekkan istiroblari haqida, uning otasiga bergan tasalli so‘zlari borasida ham qator baytlarni yozib qoldirgan.

Fikrimizcha, Bobur esa bu tavorudni ko‘proq Kichik Mirzoning donishmandlik fazilati bilan bog‘lashga harakat qilgan.

Bobur Abdurahmon Jomiy va Kichik Mirzo lirikasida ro‘y bergan tavoruddan tashqari memuarining Shayx Zayn hamda Mir Gisularning 1527 yilgi fathga bag‘ishlab yozilgan ruboiylari xususida ham tavorud atamasini qo‘llagan. Chunonchi: “Bu fathdin so‘ngra “tug‘ro”da “g‘ozi” bitildi. Fathnomada tug‘roning ostida bu ruboiyni bitidim:

Islom uchun ovarai yozi bo‘ldum,

Kufforu xunud harbsozi bo‘ldum.

Jazm aylab erdim o‘zni shahid o‘lmoqqa,

Alminnatu lillahki, g‘ozi bo‘ldum.

Shayx Zayn bu fathqa “Fathi podshohi Islom” lafzini tarix topib edi. Kobuldin kelur kishilardin Mir Gesu ham ushbu lafzni tarix topib, ruboiy aytib yiborib edi, – tavorud voqi‘ bo‘lubtur. Ham Shayx Zayn va ham Mir Gisuning ruboiylaridin topqonlari yaxshiroq uchun o‘shul alfozni – o‘q kelturuldi. Yana bir qatla Dinalpurning fathida Shayx Zayn “vas‘ati shahri rabiul avval”ni ta‘rix topib edi. Mir Gisu ham ushbu lafzni topib edi” (229).

Temuriylar Uyg‘onish davri vakili Abulvafoiy Xorazmiy va Bobur ijodiga xos bo‘lgan mushtarak adabiy hodisani belgilashda biz yana ixlos bilan Alisher Navoiy ijodxonasiga yuzlanamiz. Alisher Navoiy “Majolis un-nafois” tazkirasining “Avvalg‘i majlis”da o‘zining hurmati va e‘tiqodini izhor qilgan hamda “Xoja avsofini har kishi bitar bo‘lsa, alohida bir kitob bitmak kerak, ma‘lum emaskim bu kitobda ham siqq‘aymu yo yo‘q”¹⁰ deya sharaflagan va Xorazm xalqi “Yer farishtasi” deya e‘zozlagan Xoja Abulvafoiy Xorazmiy (XIV asrda, Shohrux Mirzo

⁸ Ergashev Q. Kichik Mirzo. Bobur ensiklopediyasi. 2-nashri. – Toshkent: Sharq. – 290-bet.

⁹ Alisher Navoiy. Favoyid ul-kibar. MAT. 6-jild. – Toshkent: Fan, 1990. – 483-484-betlar.

¹⁰ O‘sha tazkira. – 13-bet.

zamonida yashab, ijod qilgan shayx va shoir, bizga 100 ga yaqin ruboiylari yetib kelgan) haqidagi fiqrasida uning fors tilida bitgan chuqur falsafiy mazmundagi bir ruboiysini namuna va dalil sifatida keltiradi:

*Bad kardamu e'tizor badtar zi gunoh,
Zero ki dar in hast se da'vii taboh,
Da'vii vujudu da'vii quvvatu havl,
Lo havla va lo quvvata illo billoh¹¹.*

Tarjimasi: Gunoh qildim, uzrim gunohimdan yomon, bu uzrda uchta buzilgan da'voni: vujudni, quvvatni, qo'rquvni da'vo qilish bekordir. Chunki qo'rquv ham, kuch-quvvat ham Oллоhdandir.

Anglashimizcha, shoiring mazkur ruboiysi ulug' shoirga juda ma'qul kelgan bo'lsa kerakki, mazkur she'rni u “Nasoiyim ul-muhabbat”¹² tazkirasida keltirgan sakkizta ruboiy qatorida ham tilga olgan. Agar ruboiyga diqqat qilsak, Abulvafoiy Xorazmiy ruboiyning birinchi “Bad kardamu, e'tizor batar zi gunoh” misrasida Sharqda mashhur bo'lgan, hozir ham so'zlashuv uslubida bor bo'lgan “Uzri gunohidan yomonroq”¹³ maqolini mahorat bilan qo'llaganiga va nazmda irsoli masal san'atining betakror namunasi ijod qilganiga amin bo'lamiz (I.Bekjon talqiniga ko'ra, *uzr* so'zi o'rnida *bahona* so'zini ham qo'llash mumkin – “Bahonasi gunohidan yomonroq”¹⁴ kabi). “Maqolga adabiy nuqtai nazardan qiziqish, asar badiiyligini oshirish va badiiy til ravonligini ta'minlash uchun undan foydalanish hamma zamon so'z san'atkorlarining doim diqqat markazida bo'lgan”¹⁵. Tadqiqot natijasiga ko'ra, Bobur ham “Boburnoma” ning 1500-1501 yil voqealari bayonida ushbu maqol, folklorizmni aynan qo'llab, nasrda irsoli masal san'atini yaratgan. Tarixdan ma'lumki, Samarqandni olgan Shayboniyxon Temuriylar Uyg'onish davrining yirik mutasavvuf, murabbiy va muqavviysi Xoja Ahror Valiyning o'g'li Xoja Yahyoni ikki o'g'li Xoja Muhammad Zakariyo va Xoja Boqiyni Xurosonga yuborib, har uchovini qatl ettiradi. Ushbu qatldan qattiq norozi bo'lgan qarshi kuchlarga Shayboniyxon bu qotillikni men emas, balki Qambarbiy va Ko'pakbiy qildi, deb tushuntirish berib, go'yo o'z uzrini bildirgandek bo'ladi. Bobur memuarda ushbu o'lim jazosining tafsilotini bitar ekan shu o'rinda (78), ya'ni “Uzrash batar az gunoh” – “Uzri gunohidan yomonroq” yoki “Bahonasi gunohidan yomonroq” maqolini o'z fikri va “tahqiqi”ga dalil sifatida ishlatgan. Beklar bunday o'lim jazosini xon yoki

¹¹ O'sha tazkira. – 13-bet.

¹² Alisher Navoiy. Nasoiyim ul-muhabbat. MAT. 17-jild. – Toshkent: Fan, 2001. – 299-300-betlar.

¹³ O'zbek xalq maqollari. Ikki tomlik. 1-tom. – Toshkent: Fan, 1987. – 121-bet.

¹⁴ Xondamir. Buyuklik xislati. Fors tilidan I.Bekjon tarjimasi. – Toshkent: Sharq, 2011. – 114-bet.

¹⁵ O'zbek xalq maqollari. – 7-bet.

podshoxning amru farmonisiz yashirin qilmaydi, degan sha’riy xulosasini shu maqol bilan asoslaydi hamda islom huquqida jinoyat va jazo masalasida, asosan, mo‘tabar shaxslarga nisbatan eng oliy jazo – o‘lim jazosi faqat hukmdorlar muhri bilan tasdiqlanganidan keyin kuchga kirishiga (Abdulatif Mirzo muhri urilmaganda Ulug‘bek Mirzo, Sulton Husayn Boyqaro muhri urilmaganda Mo‘min Mirzo o‘limga yo‘l qo‘yilmagan bo‘lardi – B.R.) ham ishora qilib o‘tgan. Chunonchi: “Mundoq ishlarni beklar o‘z boshi bila xonidin va podshohidin bevuquf qila boshlasa, bas, xonlig‘ig‘a va podshohlig‘ig‘a ne e‘tibor” (78). Bu o‘rinda Bobur o‘z norozilik notasini ham ochiq aytib o‘tgan. Mumtoz adabiyotimizda yana bir mushtarak adabiy hodisa, ya’ni tavorud bor bo‘lib, bu ham Temuriylar Uyg‘onish davri ijodkorlari “Boburnoma”da e‘tirof bilan tilga olingan mumtoz muarrix, adib Sharafiddin Ali Yazdiy va Alisher Navoiy, Badriddin Hiloliy kabi shoirlar ijodida uchraydi. Ishonchli manbalardan ma’lumki, Amir Temur podshohlik, mulku millat ishida aqlu farosat, shijoat, bahodirlik kabi xislatlarni juda qadrlagan. Tadbir, aql va ra’yni shijoatdan yaxshi deb bilgan Sohibqironning olamgirliğini Alisher Navoiy tazkiraning Shayx Bobo Sungu ziyorati aks etgan tasvirda ko‘rsatadi: “Bobo Sungu (q.s.) zamon majzublaridin ermish. Andxud qasabasida bo‘lur ermish. Sohibi botin kishi ermish. Ramzlarin bilganlar natija topar ermish. Temurbek Xuroson mulki azimatig‘a yuruganda, Andxudqa yetganda mashhurdurki, Bobo xidmatig‘a borg‘andur. O‘lturg‘ondin so‘ngra Bobo ilayida bir sufrada yaxna et erkandur. Qo‘yning yaxshi to‘shin olib, Temurbek sari otibdur. Temurbek g‘oyati aqlu zakosidin debdurki, Xurosonni yer yuzining ko‘ksi debdurlar. Ani Bobo bizga havola qildi, deb bashorat bila yurub, Xuroson mulkini olibdur”¹⁶. Alisher Navoiyning bu ma’lumoti va tasviri xuddi muarrix Sharafiddin Ali Yazdiydek haqqoniyliги, xolisligi bilan ajralib turadi.

Temuriylar Uyg‘onish davrining mumtoz muarrixi Sharafiddin Ali Yazdiy “Zafarnoma”da xuddi shu qiziqarli voqeani Eron viloyatiga qo‘shin tortib borilgan tovuq yili – 1381 yil fasli bahorida sodir bo‘lgan, deb sharhlaydi: “Hazrat Sohibqiron avji azimat va davlat bilan suvdin o‘tub, Andxudqa yetti. Va g‘oyat sidq va ixlosdin Bobo Sungukim, avliyolardin erdi, tavofig‘a bordi. Va Bobo Sungu, jazaba va holatikim, anda bor erdi, bir qo‘ynung to‘shini Hazrat qoshig‘a tashladi. Ul Hazrat shu kun tutub, to‘shni olib dedikim: “Xurosonkim, yer yuzining to‘shi turur, bizga Tangri bergusi turur”. Va o‘shandoq bo‘ldi va andin saodat

¹⁶ Alisher Navoiy. Nasoyim ul-muhabbat. MAT. 17-jild. – Toshkent: Fan, 2001. – 427–428-betlar

va iqbol bila yurudi”¹⁷. Alisher Navoiy “Hayrat ul-abror” dostonining “Xuroson kishvari bayonidakim” nomli IX maqolatda “Xuroson yer yuzining ko‘ksidir”, degan sifatlashu hikmatni masnaviy shaklda mahorat bilan bir baytda shunday tasvirlagan:

*Anga jahon ko‘ksi kelibdur sifat,
Anda ko‘ngul xittai poki Hirot*¹⁸.

Har ikkala lavhada ham shayxning ramziy savoliga, ramziy nazariga, ramziy quvvatiga Amir Temurning sidq va ixlos hamda aql-zakovat bilan javob bergani bayon etiladi.

Yoki Hasanxo‘ja Nisoriy “Muzakkir ahhob” nomli tazkirasida yozishicha, Ubaydulloxon 1529 yilda Xurosonni egallash uchun Hirotni qamal qiladi va poytaxt shaharni qo‘lga kiritadi. Ubaydulloxonning ushbi fathi munosabati bilan shoir Badriddin Hiloliy ham fors tilida bir qasida bitadi va qasidasini “Xuroson yer yuzining ko‘ksidir”, degan sifatlashu hikmat bilan boshlagan. U mahorat bilan qasida matlasida shunday tasvirlagan:

*Xuroson sinai ro‘i zamin az bahri on omad
Ki, jon omad dar o‘, Ubaydulloxon omad*¹⁹.

Tarjimasi: Xurosonni shuning uchun ham yer yuzining qalbi (ko‘ksi) deydilarki, zero, unga jon, ya’ni Ubaydulloxon kelmish.

Badriddin Hiloliyning ushbu matlasi Sharafiddin Ali Yazdiy va Alisher Navoiy yozgan tasviriga monandligi, haqqoniyligi bilan ajralib turadi. Biroq Sharafiddin Ali Yazdiy va Alisher Navoiy asarlarida keltirilgan tasvirda Amir Temur sharafiga atab yozilgan bo‘lsa, Badriddin Hiloliy esa Ubaydulloxon sharafiga bag‘ishlab yozgan, muhimi, turkiy va forsiy mumtoz adabiyotimizda yana bir go‘zal mushtarak adabiy hodisa, ya’ni tavorud yaratilgani tahsinga loyiq.

Xulosa shuki, Bobur bitib qoldirgan Temuriylar Uyg‘onish davrining ulug‘ shayx va shoiri, fozil “murabbiy va muqavviy”si Abdurahmon Jomiy haqidagi ushbu qimmatli yodnomalar bizga, birinchidan, ulug‘ Alisher Navoiy “Nasoyim ul-muhabbat” tazkirasining Abdurahmon Jomiyga atab yozgan fiqrasida aytgan “Necha kishi alarning siyratu kamoloti sharhida rasoilu kutub bitibdurlar va tasonif sabbt etibdurlar, arodadur. Bilay degan kishi ul jam‘i ta’lifdin o‘z fahmi xurdida maxsus bo‘lur va bahra ola

¹⁷ Sharafiddin Ali Yazdiy. Zafarnoma. – Toshkent: Sharq, 1997. – 89-bet.

¹⁸ Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror. MAT. 7-jild. – Toshkent: Fan, 1991. – 307-bet

¹⁹ Hasanxo‘ja Nisoriy. Muzakkiri ahhob. (Fors tilidan I.Bekjon tarjimasi.) – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 1993. – 75-bet

olur”²⁰ e’tirofini eslatadi, ikkinchidan, uning Temuriylar Uyg‘onish davri madaniyati ilm, fan, adabiyot ko‘tarilishi, madrasa ta’limi rivojiga qo‘shgan xizmatlaridan xabardor qilsa, uchinchidan esa Boburning Nuran maxdum haqidagi “bahra”larini jomiyshunoslik faniga qo‘shgan adabiy, ma’naviy, ma’rifiy xizmatlari sifatida baholaymiz.

Biz yuqorida tahlil va talqin qilgan tavorud, irsoli masal kabi mushtarak adabiy hodisalar Sharafiddin Ali Yazdiy, Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Kichik Mirzo, Abulvafoiy Xorazmiy, Badriddin Hiloliy hamda Boburning hayoti va ijodi bilan bog‘liq ayrim mushtarak jihatlarini ochib berish bilan birga, ularning o‘ziga xos badiiy mahoratini hamda ular ishtirokidagi qizg‘in adabiy jarayonni ko‘rsatuvchi mezon hamdir.

²⁰ Alisher Navoiy. Nasoyim ul-muhabbat. MAT. 17-jild. – Toshkent: Fan, 2001. – 480-bet.